

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

1. Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasining ijrosi qaysi subyekt tomonidan ta'minlanadi? (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 292-modda) 1) xususiy sanitariya nazorati; 2) ichki ishlar organlari; 3) davlat xavfsizlik xizmati; 4) milliy gvardiya.

- A) 1, 3
- B) 2, 4
- C) 2, 3
- D) 1, 4

2. Quyidagilarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga muvofiqlashtiring. (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 26, 27-moddalar) I. Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish II. Musodara qilish III. Umumiy xususiyatlar a) sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirishni o'z ichiga oladi; b) haq to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat; c) huquqbuzarning shaxsiy mulki bo'lmagan ashyoga qaratilmaydi; d) jinoiy jazoning turlari; e) asosiy tirikchilik manbai ovchilik bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas; f) ma'muriy jazoning turlari.

- A) I-a; II-b, c; III-e, d
- B) I-b; II-a, c; III-e, d
- C) I-a; II-b, c; III-e, f
- D) I-a; II-b, e; III-f

3. Quyidagilardan qay biriga nisbatan ma'muriy qamoqqa olish chorasi qo'llanilishi mumkin EMAS? (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 29-modda) 1) homilador ayollar; 2) o'n olti yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga; 3) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar; 4) birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslar; 5) harbiy xizmatchilar; 6) chet el fuqarolari.

- A) 1, 3, 4
- B) 1, 3, 5
- C) 1, 2, 4
- D) 3, 5, 6

4. Ma'muriy jazo qo'llanish muddatlariga oid NOTO'G'RI xulosani aniqlang. (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 36, 37, 39-moddalar)

- A) Ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun ...
- B) Basharti ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil m...
- C) Yo'l harakati qoidalarini buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vosital...
- D) Ma'muriy jazoni qo'llanish ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni bajarilmaganligi uchun ma'mu...

5. Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish qaysi vaqt oralig'iga tatbiq etiladi? (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 192-modda)

- A) tungi vaqtda — soat 00.00 dan 06.00 gacha
- B) tungi vaqtda — soat 22.00 dan 06.00 gacha
- C) tungi vaqtda — soat 20.00 dan 06.00 gacha
- D) tungi vaqtda — soat 23.00 dan 06.00 gacha

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

6. Hududlarning huquq ustuvorligi indeksi aniqlanadigan asosiy yo'nalishlarini belgilang? 1) fuqarolar huquq va erkinliklarining ta'minlanish; 2) qonunning ochiq e'lon qilinishi va undan foydalanish imkoniyatining qisman mavjudligi; 3) odil sudlov va sud qarorlarining ijro etilishi; 4) orqaga qaytish kuchiga ega hech qanday qonun qabul qilinmasligi; 5) huquq-tartibot o'rnatilgani va xavfsizlikning ta'minlangani; 6) fuqarolar faqat qonunga muvofiq jazolanishi.

- A) 1, 3, 6
- B) 1, 3, 5
- C) 2, 4, 5
- D) 2, 4, 6

7. "Har bir insonning insoniy qadr-qimmatiga bo'lgan huquqi mustahkam tarzda himoya qilinadi va uning buzilishiga yo'l qo'yilmaydi" Ushbu jumla kimga tegishli?

- A) Germaniya Konstitutsiyaviy sudi raisi
- B) Kofi Annan, BMT Bosh kotibi
- C) Shavkat Mirziyoyev
- D) Nelson Mandela

8. Davlat va mamlakat aholisi o'rtasidagi shartnoma qanday ataladi?

- A) qonun
- B) huquq
- C) konstitutsiya
- D) deklaratsiya

9. Quyidagilardan qaysi davlat cheklangan monarxiya hisoblanadi?

- A) Shri Lanka
- B) Vatikan
- C) Shvetsiya
- D) Irlandiya

10. Quyida keltirilgan ma'lumotlarni to'g'ri moslashtiring. 1) 2008-yil a) O'zbekiston tashabbusi bilan "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida Toshkent xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi; 2) 2017-yil b) mahala fuqarolari yig'inlariga 152 kishini kafilik asosida topshirildi; 3) 2018-yil c) Yaponiya uzluksiz turg'unlik davrini boshdan kechirdi; 4) 1990-yil boshi d) amnistiya aktini qo'llashga oid yakuniy qaror faqat sudlari chiqarishi belgilab qo'yildi.

- A) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d
- B) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d
- C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c
- D) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a

11. Quyidagilarni to'g'ri moslashtiring. I. Unitar davlat II. Federativ davlat a) Misr; b) Turkiya; c) Avstraliya; d) Somali; e) Sudan; f) Venesuela; g) BAA; h) Fransiya.

- A) I-b, e, d, g; II-a, c, f, h.
- B) I-a, c, d, h; II-b, e, f, g.
- C) I-a, b, e, h; II-c, d, f, g.
- D) I-b, c, f, g; II-a, e, d, h.

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

12. O'zbekiston Respublikasida moliya va kredit tizimining bosh maqsadini aniqlang.

- A) valuta barqarorligini ta'minlash
- B) budjetni qabul qilish va ijro etish
- C) pulni muomalaga chiqarish
- D) bank, soliq va kredit tizimini ishlab chiqish

13. Quyida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiling va to'g'ri moslashtiring. 1) Ma'muriyat a) huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar beruvchi yurist; 2) Muammo b) "adolat, to'g'rilik, haqqoniylik"; 3) Adliya c) kishilar obod qilgan, qo'nim topgan, tabiatdan o'zlash tirgan maskanlar, mamlakatlarning mushtarak nomi; 4) Advokat d) kishi nomi yashiringan mumtoz she'riyat janri.

- A) 1-c, 2-b, 3-d, 4-a
- B) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a
- C) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b
- D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

14. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonunning asosiy prinsiplarini to'g'ri toping? ("Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi qonun, 5-modda) 1) ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning tizimlilik va komplekslilik; 2) murojaatlarni ko'rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo'l qo'yilmasligi; 3) ilmiylik; 4) jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi; 5) ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning mustahkamligi; 6) jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish hamda ularning ustuvorligi.

- A) 1, 3, 5
- B) 1, 3, 6
- C) 2, 3, 6
- D) 2, 4, 5

15. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonun haqida NOTO'G'RI berilgan javobni toping. ("Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi qonun, 9, 11-moddalar) 1) qonunlar eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinishi mumkin; 2) qonunlar konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi mumkin; 3) qonunlar huquqiy prinsiplar va normalarni mustahkamlovchi, birlashtiruvchi, tizimlashtiruvchi, shuningdek ijtimoiy munosabatlar eng muhim sohasining huquqiy jihatdan kompleks tartibga solinishini ta'minlovchi kodekslar tarzida qabul qilinishi mumkin; 4) qonunosti hujjatlarda qonun hujjatlari darajasida tartibga solinishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha normalar belgilanishi mumkin.

- A) 1, 3
- B) 1, 4
- C) 2, 3
- D) 2, 4

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

16. Prokuror nazorati hujjatlarini to'g'ri moslashtiring. ("Prokuratura to'g'risida"gi qonun, 38, 39, 31, 32-moddalar) 1) Taqdimnoma a) ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab 15 kun ichida organ yoki mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi shart; 2) Ariza b) qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi; 3) Qaror c) darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim; 4) Protest d) fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga qilingan murojaat.

- A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c
- B) 1-d, 2-c, 3-a, 4-b
- C) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a
- D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b

17. Prokuratura organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari NOTO'G'RI keltirilgan javobni aniqlang. ("Prokuratura to'g'risida"gi qonun, 4-modda) 1) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar va idoralarning harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish; 2) ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida jinoiy jazolarni ijro etish; 3) fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlarni ijro qilish; 4) tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

- A) 1, 3
- B) 1, 4
- C) 2, 3
- D) 2, 4

18. Quyida ta'rifi keltirilgan yuridik terminni toping. ("Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun, 3-modda) "ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxsdan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilinayotgan yoki boshqacha tarzda norozilik bildirilayotgan, shuningdek, kelib tushgan paytga kelib qonunchilikda belgilangan ko'rib chiqish muddati tugagan bo'lsa, ilgorigi murojaati o'z vaqtida ko'rib chiqilmaganligi to'g'risida xabar qilinayotgan murojaat"

- A) takroriy murojat
- B) murojaatning dublikati
- C) apellyatsiyaviy murojaat
- D) shikoyat

19. Quyidagi yuridik terminlarni to'g'ri moslashtiring. ("Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun, 3-modda) 1) ishonch telefoni a) ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatining ko'chirma nusxasi 2) videokonferensaloqa b) ilgorigi murojaati o'z vaqtida ko'rib chiqilmaganligi to'g'risida xabar qilinayotgan murojaat 3) murojaatning dublikati c) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan maxsus telefon aloqa tizimi 4) takroriy murojaat d) uzoqda joylashgan bir nechta abonentlarning real vaqt rejimida audio- va videoaxborot almashish imkoniyati

- A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c
- B) 1-d, 2-c, 3-a, 4-b
- C) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a
- D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

20. To'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang. ("Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun, 7, 9, 10-moddalar) 1) ommaviy axborot vositalariga yo'llangan murojaatlardan ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq jamoatchilik fikrini o'rganish va aks ettirish uchun foydalanilishi mumkin; 2) videokonferensaloqa vositasida qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi; 3) Xalq qabulxonalari va virtual qabulxona davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan murojaatlarning samarali ko'rib chiqilishini tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuziladi; 4) Xalq qabulxonalari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmaydi.

- A) 1, 3
- B) 1, 4
- C) 2, 3
- D) 2, 4

21. Mehnat shartnomasini taraflarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra bekor qilish asoslarini to'g'ri toping. (Mehnat kodeksi, 168-modda) 1) xodimning harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilganligi; 2) xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga muvofiq emasligi; 3) xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) munosabati bilan; 4) tashkilotni tugatish yoki ish beruvchi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini tugatish to'g'risidagi sud qarorining qonuniy kuchga kirganligi.

- A) 1, 3
- B) 1, 4
- C) 2, 3
- D) 2, 4

22. Jamoaviy mehnat nizolarini tartibga solish bo'yicha davlat organlarini to'g'ri toping. (Mehnat kodeksi, 577-modda) 1) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; 2) Ishsizlikdan himoya qilish agentligi; 3) respublika va mahalliy darajadagi kasaba uyushmalari; 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalari.

- A) 1, 3
- B) 1, 4
- C) 2, 3
- D) 2, 4

23. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, keltirilgan ma'lumotlarni muvofiqlashtiring. (Mehnat kodeksi, 96, 129-moddalar) I. Dastlabki sinov belgilanmaydigan shaxslar II. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish sohasidagi qo'shimcha kafolatlar beriladigan shaxslar a) o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota-onalar; b) homilador ayol, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayol yoki uch yoshga to'lmagan bolani yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan ota (vasiy); c) tegishli ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilar; d) odam savdosidan jabrlanganlar; e) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar; f) pensiyaoldi yoshidagi shaxslar.

- A) I-b, c, e; II-a, d, f
- B) I-a, d, e; II-b, c, f
- C) I-b, c, f; II-a, d, e
- D) I-b, d, f; II-a, c, e

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

24. Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang. I. Mehnatga oid huquqiy munosabatlarda voyaga yetmaganlar katta yoshdagi xodimlar bilan tenglashgan tartibdagi huquqdan bo'ladilar. II. Bolalar uchun ish haqi, ish vaqtidan tashqari ishlarga va dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilinmasligi lozim. III. O'n besh yoshga to'lgan bolalar ota-onasidan birining yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinadi.

- A) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri
- B) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri
- C) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri
- D) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

25. Quyidagilarni o'zaro moslashtiring. 1) mehnat sharoitlarini ta'minlash; 2) ishga qabul qilish; 3) mehnatga haq to'lash va ish haqi; 4) har yilgi mehnat ta'tili; 5) mehnat munosabatlariga oid nizolar. a) ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat shartnomasini tuzilishga oid munosabatlar; b) mehnatga haq to'lash, xodimga uning mehnati uchun to'lov belgilash va ularni amalga oshirishga oid munosabatlar; c) ish beruvchi xodimlar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratib berishga oid munosabatlar; d) ish beruvchi va xodim o'rtasida yuzaga keladigan turli huquqiy kelishmovchiliklar; e) mehnat qobiliyatini tiklash uchun ish o'rni hamda o'rtacha ish haqi saqlab qolinganda xodim ishdan ozod etiladigan davrdagi munosabatlar.

- A) 1-c, 2-b, 3-a, 4-e, 5-d
- B) 1-a, 2-c, 3-b, 4-e, 5-d
- C) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d, 5-e
- D) 1-c, 2-a, 3-b, 4-e, 5-d

26. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zlarni aniqlang. (Mehnat kodeksi, 314-modda) Intizomiy jazo ...a) dan kechiktirmay qo'llaniladi, taftish yoki moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra esa, u sodir etilgan kundan e'tiboran ...b) dan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

- A) a-2, b-3
- B) a-1, b-4
- C) a-1, b-2
- D) a-3, b-4

27. Intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlashga asos bo'luvchi javobni aniqlang? (Mehnat kodeksi, 315-modda) 1) ish beruvchi tashabbusi; 2) xodimning bevosita rahbarining talabnomasi; 3) kasaba uyushmasi qo'mitasining iltimosnomasi; 4) tuman, shahar prokurorining tashabbusi.

- A) 1, 2
- B) 1, 4
- C) 1, 3
- D) 3, 4

28. Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang. (Mehnat kodeksi, 387-modda) I. Falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasini olishga doir dissertatsiyani yakunlash uchun hamda darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish — uch oygacha ijodiy ta'til beriladi. II. Fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasini olishga doir doktorlik dissertatsiyani yakunlash uchun — olti oygacha ijodiy ta'til beriladi. III. Mualliflar jamoalari tomonidan darsliklar va o'quv-uslubiy-qo'llanmalarni yozish chog'ida mualliflar jamoasi a'zolariga ulardan har birining alohida yozma arizaga muvofiq ijodiy ta'til beriladi.

- A) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri
- B) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri
- C) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri
- D) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

29. Quyidagilardan qaysilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari tizimiga KIRMAYDI? ("Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" gi qonun, 10-modda) 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi; 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Xalq qabulxonalari; 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tumanlar va shaharlardagi (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari) Xalq qabulxonalari; 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloqlar, ovullarlardagi Xalq qabulxonalari; 5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mahallalardagi Xalq qabulxonalari; 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet eldagi Xalq qabulxonalari.

- A) 1, 2, 3
- B) 3, 4, 5
- C) 4, 5, 6
- D) 2, 4, 5

30. Quyidagilarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa berilgan javobni aniqlang. ("Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" gi qonun, 8, 9, 101, 14-moddalar)

- A) Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, o'z nomi yozilga...
- B) Fuqarolar yig'ini organlari quyidagilardir: fuqarolar yig'ini kengashi; fuqarolar yig'ini faoliyatining asosi...
- C) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holatni joriy etish to'g'risidagi farmonida favqulod...
- D) Fuqarolar yig'inining raisi belgilangan namunadagi guvohnomaga ega bo'ladi. Fuqarolar yig'ini raisinin...

31. NOTO'G'RI berilgan javobni aniqlang. (Oila kodeksi, 79, 89-moddalar) 1) bola sudning ajrimiga ko'ra tarbiyalash muassasasiga, davolash muassasasiga, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasiga yoki shunga o'xshash boshqa muassasaga vaqtincha joylashtirilishi mumkin; 2) bolani olish va uni boshqa shaxs (shaxslar)ga berish bilan bog'liq sudning hal qiluv qarorlarini majburiy tartibda ijro etish albatta vasiylik va homiylik organining hamda bola tarbiyalashga berilayotgan shaxslar belgilangan tartibda ixtiyoriy kelishlari mumkin, zarur hollarda esa, ichki ishlar organi vakili ishtirokida amalga oshirilishi mumkin; 3) ota-ona va o'n to'rt yoshga to'lgan voyaga yetmagan bolalar o'rtasida qonunda belgilangan tartibda umumiy mulk huquqi vujudga kelishi mumkin; 4) ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortish, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlash ota-onalik huquqidan mahrim etishga sabab bo'lishi mumkin emas.

- A) 1, 3
- B) 2, 4
- C) 1, 4
- D) 2, 3

32. Nikohlanuvchi shaxslar quyidagi tibbiy ko'riklarning qay biridan O'TMAYDI?

- A) psixik, narkologik
- B) tanosil va sil kasalligi bo'yicha
- C) OIV/OITS
- D) nafas yo'llarining yallig'lanishi

33. Berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, to'g'ri berilgan javobni aniqlang. (Oila kodeksi, 34, 35-moddalar) 1) agar sud er (xotin)ning majburiyatlari bo'yicha orttirilgan barcha ashyolar oila ehtiyojlari uchun ishlatilganligini aniqlasa, er-xotinning umumiy majburiyatlari bo'yicha, shuningdek er (xotin)ning majburiyatlari bo'yicha haq undirish er-xotinning shaxsiy (xususiy) mol-mulkiga qaratiladi; 2) er (xotin)ning majburiyatlari bo'yicha haq undirish faqat uning mol-mulkiga qaratilishi mumkin; 3) er (xotin) nikoh shartnomasi tuzayotgani, uni o'zgartirayotgani yoki bekor qilayotgani to'g'risida o'z soliq organlarini xabardor qilishi shart; 4) Qarzdor er (xotin)ning kreditori sharoit jiddiy o'zgargani tufayli nikoh shartnomasining shartlarini qonunda belgilangan tartibda o'zgartirish yoki bekor qilishni talab qilishga haqli.

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

34. Fuqarolar yig'ini quyidagi qaysi subyektlarning sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida axborotini eshitadi? ("Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun, 11-modda) 1) profilaktik inspektorlari; 2) tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari; 3) xususiy oilaviy shifokor punktlari rahbarlari; 4) oilaviy poliklinikalar.

- A) 1, 3
- B) 2, 4
- C) 2, 3
- D) 1, 4

35. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, keltirilgan vakolatlarni Eyler-Venn diagrammasiga muvofiqlashtiring. ("Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun, 13, 14-moddalar) I. Fuqarolar yig'ini kengashi vakolatlari II. Fuqarolar yig'inining raisi vakolatlari III. Umumiy xususiyatlar a) yosh avlodni tarbiyalash masalalari yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi; b) fuqarolar yig'ini mablag'larini qonunchilikka muvofiq tasarruf etadi; c) fuqarolar yig'inini (fuqarolar vakillarining yig'ilishini) chaqiradi; d) tegishli hududda maslahat markazlari ishini tashkil etadi; e) aholidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'z vaqtida tushishiga ko'maklashadi; f) fuqarolar yig'iniga - mas'ul kotibining, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar hamda taftish komissiyasi raislari va a'zolarining nomzodlarini, fuqarolar yig'ini kengashiga — harbiy hisobni yuritish bo'yicha xodimning nomzodini tasdiqlash uchun taqdim etadi.

- A) I-b, e; II-d, f; III-a, c
- B) I-a, e; II-b, d, f; III-c
- C) I-b, f; II-a; III-c, d, e
- D) I-a, b; II-c, f; III-d, e

36. Ko'chmas mulkka oid meros yoki hadya tartibida fuqarolar mulkiga o'tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma'lumotnomalarni notarius qaysi subyektga taqdim etadi? ("Notariat to'g'risida" gi qonun, 18-modda)

- A) Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqar...
- B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga va "Inson" ijtimoiy xiz...
- C) davlat soliq xizmati organi
- D) kredit tashkilotlariga

37. NOTO'G'RI keltirilgan ma'lumotni toping. ("Sudlar to'g'risida"gi qonun, 5, 89, 90, -moddalar) 1) sudyalar korpusini shakllantirish sudyalarning ochiqqligi prinsipiga qat'iy rioya qilish Sudyalar oliy kengashi tomonidan amalga oshiriladi; 2) O'zbekiston Respublikasi sudlarining tuzilmasi va shtat birligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi; 3) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tumanlararo, tuman, shahar sudlari va harbiy sudlarni moliyalashtirish Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti tomonidan amalga oshiriladi; 4) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti vakolatlari va uning faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilanadi.

- A) 2, 3
- B) 2, 4
- C) 1, 4
- D) 1, 3

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

38. Oliy sud Plenumining majlislarida ishtrok etadigan shaxslar NOTO'G'RI keltirilgan javobni toping. ("Sudlar to'g'risida"gi qonun, 20-modda) 1) adliya vaziri; 2) Qonunchilik palatasi Spikeri; 3) Prezident Administratsiyasi boshlig'i; 4) Advokatlar palatasi raisi; 5) sudyalari; 6) Oliy Majlis huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi

- A) 1, 4, 5
- B) 1, 3, 5
- C) 2, 3, 6
- D) 2, 3, 5

39. Quyida keltirilganlardan qaysilari Adliya vazirligi tarkibiga kiradi? (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi nizom, 2-bob, 8-band) 1) "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasi; 2) X.Sulaymonova nomidagi akademik litsey; 3) "Adliya organlari" milliy huquqiy axborot markazi" davlat muassasasi; 4) O'zbekiston Milliy arxivi, O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi.

- A) 1, 3
- B) 1, 4
- C) 2, 3
- D) 2, 4

40. To'g'ri ma'lumotni toping. ("Advokatura to'g'risida" gi qonun, 4-modda)

- A) Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek y...
- B) Advokatlik tuzilmalarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, tuzilmasi, shtatla...
- C) Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlari ular ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'...
- D) Advokatlar advokatlarning jamoat birlashmalarini tuzishi mumkin.

41. "Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etish qaysi organning taklifi asosida amalga oshirildi?

- A) Vazirlar Mahkamasi
- B) Oliy Majlis
- C) Adliya vazirligi
- D) Prezident huzuridagi maslahat-kengashi

42. Quyidagilardan qonunosti hujjatlarini aniqlang. 1) "O'zbek... ..n Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi qonun; 2) "2026-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini bo'sh chiqish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni; 3) O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 15-noyabrdagi 19-mh-son buyrug'i; 4) "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonun; 5) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; 6) Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya.

- A) 1 va 4
- B) 2, 3, 6
- C) 1, 2, 3, 4, 5, 6
- D) 2 va 3

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

43. Quyiga keltirilgan ma'lumolarni to'g'ri belgilang. ("Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun, 5-modda) I. Murojaatlarning turlari II. Murojaatlarning shakllari a) og'zaki, yozma va elektron; b) qonuniy va anonim; c) arizalar, takliflar, shikoyat; d) yakka yoki jamoaviy.

- A) I-c, II-a
- B) I-c, II-a, b
- C) I-a, II-c
- D) I-a, b, II-c, d

44. Qaysilar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikning prinsiplariga OID EMAS? (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 3-modda) 1) qonuniylik; 2) mustaqillik; 3) fuqarolarning qonun oldida tengligi; 4) demokratizm; 5) insonparvarlik; 6) oshkoralik; 7) ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi; 8) odillik.

- A) 7, 2
- B) 2, 6
- C) 6, 8
- D) 5, 6

45. Kimlarning ma'muriy huquqbuzarliklari uchun Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llanadi? (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 14-modda)

- A) o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar
- B) o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar
- C) o'n yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar
- D) o'n to'rt yoshgacha bo'lgan shaxslar

46. Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang. (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, 11, 12, 13-moddalar) I. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan deb hisoblanadi. II. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilishiga ongli ravishda yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyotsizlikdan sodir etilgan deb hisoblanadi. III. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

- A) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri
- B) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri
- C) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri
- D) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

47. Fuqarolar yig'ini taftish komissiyasi haqida NOTO'G'RI berilgan javobni aniqlang. ("Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun, 18-modda)

- A) Taftish komissiyasi fuqarolar yig'inining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi.
- B) Taftish komissiyasi o'z faoliyatida mustaqildir va faqat fuqarolar yig'iniga hisobdor bo'ladi.
- C) Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida fuqarolar yig'ini boshqaruv organining a'zosi bo'la olma...
- D) Fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar va taftish komissiyasi Vazirlar ...

Huquq — 50 ta test savoli

Javoblari va izohlari bilan · DTM tayyorgarligi · testmakon.uz · 25.08.2026

48. Fuqarolar yig'ini raisining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslarini aniqlang. ("Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" gi qonun, 24-modda) 1) o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilganda; 2) belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganda; 3) unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda; 4) sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida bedarak yo'qolgan deb topilgan yoxud vafot etgan deb e'lon qilinganda; 5) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotganda; 6) sog'lig'i holati yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra uch oy davomida o'z vazifalarini bajara olmay qolganda; 7) vafot etganda; 8) o'z vazifalarini muntazam ravishda uzrli sabablarsiz bajarmagan taqdirda fuqarolar yig'ini tomonidan qaror qabul qilinganda; 9) favqulotda vaziyatlar joriy etilganda; 10) umumiy safarbarlik e'lon qilinganda.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10
- B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
- C) 1, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9
- D) 1, 3, 5, 7, 9

49. O'zbekiston qonunlarini ularga oid ma'lumotlar bilan to'g'ri moslashtiring. 1) Konstitutsiya — a) 1993-yil 9-aprelda qabul qilingan; 2) Konstitutsiyaviy qonunlar — b) amaldagi qonunlar uchun yuridik asos; 3) Qonunlar — c) qabul qilishda oddiy qonunlarga nisbatan murakkabroq tartib-qoidalar belgilangan; 4) Qoraqalpog'iston qonunlari — d) kodekslashtirilgan va joriy qonunlarga bo'linadi.

- A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d
- B) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a
- C) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d
- D) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d

50. "Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajuriy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir". Ushbu qoida "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning qaysi moddasida keltirilgan?

- A) 1-modda
- B) 3-modda
- C) 5-modda
- D) 7-modda

Javoblar kaliti

Huquq · 50 savol

1-B 2-C 3-A 4-C 5-D 6-B 7-A 8-C 9-C 10-C
11-C 12-A 13-D 14-B 15-B 16-D 17-C 18-A 19-D 20-A
21-B 22-B 23-B 24-C 25-D 26-B 27-C 28-A 29-C 30-B
31-B 32-D 33-B 34-B 35-A 36-C 37-C 38-D 39-B 40-D
41-C 42-D 43-A 44-B 45-A 46-B 47-D 48-B 49-B 50-B

To'liq bank, vaqt rejimi va xatolar tahlili: testmakon.uz/tests/practice/huquq/